

60 yoshdan oshgan erkaklar va 55 yoshdan katta ayollar uchun aviachiptalarga 25% chegirma!

2023 17 Oktabr

Kuzning oxiri Uzbekistan Airways yo'lovchilari uchun ko'plab kutilmagan sovg'alarni tayyorlab qo'ygan! 60 yoshdan oshgan erkaklar va 55 yoshdan yuqori ayollar uchun turizm oyligi munosabati bilan aviakompaniya 1-noyabrdan boshlab 30-noyabrga qadar amalga oshiriladigan barcha ichki aviaqatnovlarning ekonom-klassi uchun (T-klass va undan yuqori) aviachiptalarining amaldagi narxiga 25% chegirma taqdim etadi.

Chegirmali aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filiali yoki O'zbekistonda joylashgan aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin. Aviachipta sotib olayotganda yoningizda pasport yoki ID karta bo'lishi kerak.